

TASDIQLAYMAN:

“UMS” MChJ ma'muriy direktori

M.R. Kamalidinov



2026-yil "05" 02

Xodimlar uchun bosh suyanchiqli ofis kreslosi xaridi uchun

TEXNIK TOPSHIRIQ

“UMS” MChJ ehtiyojlari uchun

(“UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS” mas’uliyati cheklangan jamiyati)

Toshkent shahri

2026-yil

1. Umumiy ma'lumotlar

Kompaniya xodimlari uchun bosh suyanchiqli ofis kursisi

1.1. Tovarlarning tavsifi (funktional va iste'mol xususiyatlari)

Kompaniya xodimlari uchun bosh suyanchiqli ofis kursisi

1.2 Tovarlarni xarid qilish maqsadi

Kompaniya xodimlari uchun bosh suyanchiqli ofis kursisi

1.3 Xarid amalga oshiriladigan loyihani amalga oshirish uchun asos

2.7.3 Ma'muriy maqsadlardagi TMQni hisobdan chiqarish

1.4. Yangilik haqida ma'lumot.

Yetkazib beriladigan Tovar yangi, belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli, O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan standartlarga va ushbu toifadagi Tovarlar sifatiga qo'yiladigan talablarga muvofiq bo'lishi lozim. Ishlab chiqarilgan yili 2024-yildan oldin bo'lmasligi kerak.

2. Tovarni yetkazib berish joyi

Yetkazib berish manzili: Toshkent shahri, Farg'ona yo'li ko'chasi, 15-uy

Yetkazib berish muddati 1 kun.

3. Tovarlarning texnik xususiyatlari

Ofis kursisi

Zamonaviy dizayn asosida ishlab chiqarilgan, plastik qismi yuqori mustahkamlikka ega birlamchi xomashyodan tayyorlangan.


Kursi matosi Easy Clean bilan to'yintirilgan bo'lib, bu iflosliklarning mati ichiga chuqur kirib borishiga yo'l qo'ymaydigan zich himoya qatlamini hosil qiladi va ularni yuzada ushlab turadi. Antibakterial ishlov matoga barqaror bakteriostatik xususiyatlarni beradi, matoning ichki tuzilishini har qanday mayda ifloslik zarrachalari va bakteriyalardan himoya qiladi. Ishqalanishga chidamliligi 65.000 siklni tashkil etadi.

Suyanchig'i baland va mahkamlangan, orqani va boshni to'liq qo'llab-quvvatlashni ta'minlashi lozim. Tebranish tizimi – sinxron, o'rindiqli bilan birga stulda tebranish imkonini berishi bilan qo'shimcha qulaylik yaratadi.

Ergonomik imkoniyatlari: bel tayanchi, kursi balandligini sozlash, qattiq tebranishni rostdash.

Kursi mexanizmi multiblokli, u kursini foydalanuvchining xususiyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda aniq sozlash imkonini beradi, bu esa ish jarayonini maksimal darajada qulay qiladi.

Kursi asosi rolikli bo'lib, kursining shovqinsiz va ravon harakatlanishini ta'minlaydi. Maksimal yuk ko'tarish qobiliyati 120 kg.



Butun kresloning o'lchamlari:

Balandligi - 112-117 sm

Kengligi - 60 sm

Chuqurligi - 52 sm

O'tirg'ich - 52*50*10 sm

Orqa qismi - 49*51*6 sm

2D tirsak qo'ygich

Krestovina - 70*70*17



Havo o'tkazuvchi (to'rsimon) matoli egilgan bosh suyanchig'i, mahkamlangan - 25 sm.*16,5 sm.
Yuqori mustahkam plastmassadan yasalgan, balandligi rostlanadigan, mahkamlangan 2D tirsak qo'ygich

4. Yetkazib berish talablari

Yetkazib beruvchi mahsulotni o'z transporti yordamida yetkazib berishni ta'minlaydi. Yetkazib beruvchi tovar yetkazib beriladigan sanadan kamida ikki kun oldin Buyurtmachini xabardor qiladi. Tovarni yetkazib berish yetkazib beruvchi tomonidan Buyurtmachining ofisigacha amalga oshiriladi. Tovar o'ramida nomi yozilgan yorliq (nakleyka) bo'lishi shart, o'ram turli transport turlarida, shu jumladan qayta yuklash, tushirish va saqlash paytida uning butligini ta'minlashi lozim.

5. Komplektatsiya bo'yicha talablar

Tovar butlanishi keltirilgan ma'lumotlarga va ushbu texnik topshiriqning xususiyatlariga mos bo'lishi kerak.

6. Yetkazib berish miqdori, davriyligi, muddati va joyi bo'yicha talablar.

Xarid qilinadigan tovar miqdori - 300 dona.

Tovarni yetkazib berish manzili: Toshkent shahri, Farg'ona yo'li ko'chasi, 15-uy

Yetkazib berish muddati 1 kundan oshmasligi kerak.

7. Tovar sifatining kafolat muddati.

Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 12 oylik kafolat.

Ishlab chiqildi:

MFHQG rahbari



B.F. Ubaydullayev